

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA ERTAKLAR MAVZUSINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Ibrahimova Latofat Akmal qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo‘nalishi magistranti

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0004-3916-5811>

UO‘K:82-343.4

ANNOTATSIYA

Dunyoda ilm-fan texnologiyaning jadal rivojlanib borishi natijasida har bir davlat va jamiyatning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste‘dodi va qobiliyatini to‘liq amalga oshirishga bog‘liq bo‘lmoqda. Shu sababli, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga va ularning to‘g‘ri tarbiyalanish jarayoniga alohida e‘tibor qaratish zarurati tug‘ilmoqda. Darhaqiqat, bu borada ya‘ni, bola tarbiyasida ertaklarning o‘rni beqiyosdir va ularga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Chunki ko‘plab onalar ertaklarning farzand tarbiyasida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini his etishmoqda. Ushbu maqolada ertaklar mavzusi qiyosiy tahlil qilindi va ularning bolaning aqliy rivojlanishi uchun ta‘siri baholandi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, g‘oya, bola tarbiyasi, qahramonlar, yaxshilik.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СКАЗОК НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ибрагимова Латофат

Денауский институт предпринимательства и педагогики

АННОТАЦИЯ

В результате стремительного развития науки и техники в мире конкурентоспособность каждого государства и общества во многом зависит от интеллектуального развития молодежи и полной реализации ее талантов и способностей. Именно поэтому необходимо уделять особое внимание детям раннего возраста и их правильному воспитанию. Ведь в этом отношении роль сказок в воспитании детей бесподобна, а спрос на них также возрастает. Потому что многие мамы чувствуют важность сказок в воспитании детей. В данной статье была сравнительно проанализирована тема сказок и оценено их влияние на психическое развитие ребенка.

Ключевые слова: фольклор, идея, воспитание детей, герои, доброта.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THEMES OF ENGLISH AND UZBEK FAIRY TALES

Ibrahimova Latofat

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ABSTRACT

As a result of the rapid development of science and technology in the world, the competitiveness of every country and society depends to a large extent on the intellectual development of youth and full realization of their talents and abilities. Therefore, it is important to pay special attention to young children and their proper upbringing. In fact, in this regard, the role of fairy tales in child education is incomparable, and the demand for them is also increasing. Because of this, many mothers feel the importance of fairy tales in raising children. In this article, the theme of fairy tales was comparatively analyzed and their impact on the child's intellectual development was evaluated.

Key words: *folklore, idea, nurture, heroes, goodness.*

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, har bir xalqning ma'naviyati, madaniyati va donishmandligi xalq og'zaki ijodi orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi sanalgan ertaklar orqali o'tmishda xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlar va an'analari haqidagi atroflicha ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, ertaklar farzand tarbiyasi jarayonida hamda uning dunyoqarashini kengaytirishda va uning yetuk inson bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Chunki ertaklar orqali bolani yaxshilik sari chorlash va uni Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin. Albatta, bu masala ko'p jihatdan ertaklarning to'g'ri tanlanishi va mavzu jihatdan bolaning yoshi hamda qiziqishlariga mos ravishda tanlanishiga bog'liq bo'ladi. Chunki bola eshitayotgan ertaklaridagi bosh qahramonlarini o'zi uchun ideal shaxs darajasiga ko'taradi va bu holatda ertak bosh qahramonining xarakteri, turli harakatlarini o'zlashtirishga intiladi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida ko'plab onalar ertak aytib berishni, bolalar esa ertak o'qishni unutib qo'yishmoqda. Xolbuki, jamiyatda ko'zga tashlanayotgan o'g'rilik, xiyonat, sotqinlik, birovni haqqiga xiyonat qilish kabi yomon illatlarning soni tobora oshishi yoshlikda ertak eshitmaslik va kitob o'qimaslikdan kelib chiqmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir ertak mazmunida chuqur ma'no yashirin va ular bolani yoshligidan yaxshilik sari yetaklaydi.

Shu bois, ertak eshitib ulg'aygan bolaning dunyoqarashi rivojlanib, ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi ortib boradi, natijada u hayotda to'g'ri yo'lini topadi.

Adabiyotlar tahlili. Ertaklar mavzusida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va bu mavzu XX asrning 20-yillarida tadqiqotning obyekti sifatida o'rganilgan va bu davrda xalq og'zaki ijodiga doir ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan. Bu borada H.Zarifov¹, O.Madayev², K.Imomovlarning³ tadqiqotlari folklor asarlarini o'rganishda asosiy nazariy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv asrimizda mamlakatlar o'rtasida mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar o'rnatilmoqda, natijada xalqlar o'rtasida fikr almashinish va bir-birlarining madaniyatini o'rganish jarayoni sodir bo'lmoqda. Jumladan, xalq ertaklari ham bir tildan boshqasiga tarjima qilinib, ularning tarbiyaviy ahamiyati va mavzulari tahlil qilinmoqda. Julietta Alós⁴ o'z maqolasida ertaklarni tarjima qilish jarayonini, Sh.U.Nurulloeva⁵ esa ingliz va o'zbek tillaridagi ertaklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini yoritib bergan.

Inge van de Ven⁶ esa ertaklarni o'qish jarayonida qanday qilib diqqat-e'tiborni jamlash masalalarini yoritib beradi. Albatta, bu masala ertaklarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va to'g'ri xulosa chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

K. Abdulloyeva⁷ esa ingliz va o'zbek ertaklarini lingvomadaniy va stilistik jihatdan tahlil qilib bergan. Bu jihatlarini o'rganish orqali ertaklarning lingvokulturologik, kognitiv hamda qiyosiy tahlil qilish kabi xususiyatlariga e'tibor qaratgan. D.F. Xurramova va N.F.Ochilova⁸ ertaklardagi yetakchi qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning ingliz va o'zbek tillarida o'zaro chog'ishtirma tahlili haqida fikr yuritgan.

¹ H. Zarifov. Folklor va arxeologiya materiallarini o'rganishga doir. 1958.

² Madayev, O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent "Mumtozso'z" 2010

³ Imomov, K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/komiljon-imomov-o-zbek-xalq-nasri-poetikasi>

⁴ Alós, J. (2023). Paralinguistic in the translation of children's graphic novels into Arabic: Jeff Kinney's diary of a wimpy kid. Children's Literature in Education. <https://doi.org/10.1007/s10583-023-09558-4>

⁵ Nurulloeva Sh.N. (2022). The difference and similarities between English and Uzbek folklore. "Science and innovation" international scientific journal. <https://zenodo.org/records/7443677>

⁶ Van de Ven, I. (2023). 'Gonna get you, baby!' a qualitative-empirical study of attentional modulation in reading a short story. Language and Literature: International Journal of Stylistics, 32(4), 458-478. <https://doi.org/10.1177/09639470231202261>

⁷ Abdulloyeva, K. (2021). Ingliz hamda o'zbek ertaklarining lingvomadaniy hamda stilistik tahlili. Scientific Progress. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-hamda-o-zbek-ertaklarining-lingvomadaniy-hamda-stilistik-tahlili>

⁸ Xurramova Dildora Fozil qizi, & Ochilova Noila Farmonovna. (2023). O'zbek va ingliz tili folklorida yetakchi qahramonlarning qiyosiy o'rganilishi. Pedagog Journal, 34(1), 145-151. <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/4551>

ASOSIY QISM

Dunyodagi barcha xalqlarda azaldan mavjud bo'lgan va asrlar osha tildan-tilga o'tib kelayotgan ertaklar mavjud va ular o'sha xalqning orzu-istaklari, turmush kechinmalari, o'y-xayollarining ko'zgusi hisoblanadi. Ertaklar orqali ajdodlarimiz bizga kelajak haqida va o'zlari orzu qilgan narsalar haqida xabar yuborishgan desak xato bo'lmaydi. Masalan, ertaklarda keltirilgan "uchar gilam" yoxud "oynayi jahonnoma"lar orqali bugungi hayotimizni ularsiz tasavvur etish qiyin bo'lgan "samalyot" hamda "televizor"lar timsolini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, "Susambil" ertagi orqali o'tmishda insonlarning dehqonchilik va chorvachilik bilan kun kechirganliklari va bu jarayonda hayvonlardan foydalanishganligini ko'rish mumkin. "Ur to'qmoq" ertagidagi ur to'qmoq orqali xalqqa jabr-zulm qilayotgan boylar va yuqori tabaqadagi kishilarning ta'zirini berish nazarda tutilgan.

Turli tillardagi ertaklar mavzu jihatdan o'zaro farqlanishi mumkin, ammo ulardagi g'oya, mazmun-mohiyat bir xil yoki bir-biriga o'xshash tarzda tasvirlangan. Bunga misol qilib o'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat"dagi asosiy qahramon – Zumrad va ingliz xalq ertagi "Sindrella", "Zolushka"lardagi yetakchi qahramonlar – Sindrella va Zolushkalarni olishimiz mumkin. Ushbu qahramonlarning ismlari turlicha, biroq ular orqali o'quvchiga yetkazib bermoqchi bo'lingan fikr bir xil. Uchala ertakda ham yaxshilik ulug'langan va o'gay onalar timsolidagi yovuzlik, zug'm qoralangan. Ma'lum bo'ldiki, xalq ertaklarida maishiy hayotda va juda qadim zamonlarda yaratilganligi jihatidan o'xshashliklar mavjud. Ammo ular bir-biridan qahramonlarning ismlari, tabiat tasviri, hunarlari, voqealar bayoni bilan farq qiladi va bularni tasvirlashda milliy til va milliy ruh chizgilari yaqqol aks etib turadi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning ta'kidlashicha, ko'plab ertaklarning asosini sehr va mo'jiza tashkil etadi. Shuning uchun ham ertaklar, asosan, "Bir bor ekan, bir yo'q ekan..." deb boshlanadi, bu shuni anglatadiki, ertak tinglovchilar va mushtariylarning ishonish va ishonmaslik o'z ixtiyorida. Ammo ertaklar doimo voqealar bayoni va syujetning mohirona ipga tizilganligi bilan barchaning e'tiborini tortadi, shuning uchun ham bola tarbiyasida ertaklardan foydalanish yaxshi samara beradi deb aytish mumkin.

O'zbek ertaklarida asosan ishonuvchanlik, soddalik, sofdillik, rostgo'ylik va milliy urf-odatlarining o'zgacha tasvirlanishi namoyon bo'lgan bir paytda, ingliz ertaklari o'zining yumoristik ruh va hajvlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ingliz ertaklaridn asosan devlar, parilar, sehrgarlar, maxluqlar tasvirlanishi ham bejizga emas. Masalan, "Jack and the Beanstalk" ertagida ham Jek ismli yigitning odamxo'r maxluqlar bilan kurashganligi va o'zi hamda qarindoshlarini ulardan qutqarganligi haqida hikoya qilingan. Bundan tashqari, aka-uka Grimmlar va X.K.Andersen ertaklarida ham ko'plab qahramonlarni, asosan qashshoqlik bilan kun kechirgan va boy hamda yuqori

tabaqadagi insonlarni ko‘rish va kambag‘al kimsalarning sofdilligi va ularning ertak yakunida razil va xalqni qiynovchi boy kimsalar ustidan yengil kulganligiga guvoh bolish mumkin. Bu ertaklar kapitalizm va burjua inqilobidan keyin paydo bo‘lgan va o‘sha davr kimsalarining hayoti haqida hikoya qiladi va ulardagi voqealar syujeti achchiq kulgu ostiga olingan.

Bugungi davrda yosh avlodning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga berilib ketishidan saqlab, ularni mutolaaga torish va sog‘lom fikrli qilib tarbiyalash juda murakkab. Bu borada bolalarga go‘daklik paytidayoq ertaklar hikoya qilib berish muhim ahamiyatga ega va shu o‘rinda V.G.Gusevning ertaklar to‘g‘risidagi fikrini keltirish muhim: “Jamiyatda, umuman, inson tabiatidagi illatlar real hayotda aksini topmagach, fantastik tarzda ertaklarda o‘z yechimiga ega bo‘ladi”[1]. Ertak so‘zlab berishdan oldin bolaning psixologiyasiga, yoshiga, tabiatiga mos ertaklarni tanlash lozim bo‘ladi. Masalan, “Ziyrak uch yigit” ertagini 2 yoki 3 yoshdagi bolalarga aytib berilsa, bolaning ertakni to‘liq anglashi, voqealar syujetiga tushunishi qiyin bo‘ladi. Inglizlarning “Peppa Pig” ertagini ham bolalarga o‘qib berish xato bo‘ladi, chunki undagi bosh qahramon “Peppa” ismli cho‘chqa obrazi tahlil qilinsa, u orqali juda qaysar va otasining gapiga quloq solmaydigan qiz timsolini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri u qiziqarli va quvnoq voqelarni boshidan kechiradi va bu bola uchun qiziqarli tuyulishi mumkin, ammo uning xarakterini bola tezlik bilan o‘zlashtirib olishi ham mumkin.

Shuni aytib o‘tish joizki, bola go‘dakligida “yozilmagan oq qozg‘oz” kabi bo‘ladi va ularda atrof-muhitni o‘rganish uchun ishtiyoq baland bo‘ladi. Ushbu jarayonda ertaklar ular tushunishga harakat qilayotgan dunyo va atrof-muhit haqidagi fikrlarining rivojlanishi va ongosti savollariga javob olishiga yordam beradi. Ayniqsa, go‘dakning endi tili chiqayotganda, ularga ertaklar o‘qib berilsa ularning nutqi yaxshi rivojlanadi. Chunki, ertaklarda biz kundalik foydalanadigan so‘zlarimizdan ko‘ra ko‘proq va adabiy tildagi so‘zlar berilgan va bu bola uchun o‘zgacha ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ertaklar xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lib, jahon adabiyotining rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Ertaklar har bir xalqning mentaliteti, qarashlari, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma‘lumot beradi. Ingliz va o‘zbek ertaklarining qahramonlari va ulardan anglashilgan ma‘no bir xil, ammo chuqurroq tahlil qilinsa hayot tarzi va xalqning qarashlari jihatidan farqlarni ko‘rish mumkin.

Shuningdek, ertaklar nafaqat bola tarbiyasida, balki butun jamiyat uchun juda muhim bo‘lgan adabiyotning ajralmas bir qismi sanaladi. Ularning tarbiyaviy ahamiyati juda katta va ular kognitiv hamda hissiy-estetik jihatlarga ega, va biz bilganimizdek bularsiz haqiqatni bilish mumkin emas[1]. Ertaklar tufayli bolaning so‘z-mantiq tafakkuri hamda emotsional sohasi rivojlanib boradi. Ma‘lum bo‘diki, ertaklarning xalqalar va jamiyatlar, ularning rivoji uchun ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulloyeva, K. (2021). Ingliz hamda o‘zbek ertaklarining lingvomadaniy hamda stilistik tahlili. Scientific Progress. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-hamda-o-zbek-ertaklarining-lingvomadaniy-hamda-stilistik-tahlili>
2. Alós, J. (2023). Paralanguage in the translation of children’s graphic novels into Arabic: Jeff Kinney’s diary of a wimpy kid. Children’s Literature in Education. <https://doi.org/10.1007/s10583-023-09558-4>
3. Bourke, J. (1996). The great male renunciation: Men’s dress reform in inter-war Britain. Journal of Design History, 9(1), 23-33. <https://doi.org/10.1093/jdh/9.1.23>
4. Dubino, J. (1993). The Cinderella complex: Romance fiction, patriarchy and capitalism. The Journal of Popular Culture, 27(3), 103-118. <https://doi.org/10.1111/j.0022-3840.1993.00103.x>
5. Hansen, K. S. (2023). ‘A pattern of clothes:’ fairy tale, originality, and dress in Dodie Smith’s I capture the castle. Children’s Literature in Education. doi:10.1007/s10583-023-09540-0
6. Hao, Y. (2023). Students’ emotional experiences in learning translation memory systems: A narrative-based study. The International Journal of Translation and Interpreting Research, 15(2), 157-175. doi:10.12807/ti.115202.2023.a10
7. Imomov, K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/komiljon-imomov-o-zbek-xalq-nasri-poetikasi>
8. Kholmurodova O. A. Comparative analyses of Uzbek and English cumulative fairy tales. Journal of the Association –Institute for English Language and American Studies – 2019. – 8(10) – 59-73pp.
9. Madayev, O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent “Mumtozso‘z” 2010
10. Nurulloyeva Sh.N. (2022). The difference and similarities between English and Uzbek folklore. “Science and innovation” international scientific journal. <https://zenodo.org/records/7443677>
11. Ubaydullayeva M. A. Comparative-typological analyses of the terms of folk art. International Journal on Integrated Education – 3(12) – 155-157pp.
12. Van de Ven, I. (2023). ‘Gonna get you, baby!’ a qualitative-empirical study of attentional modulation in reading a short story. Language and Literature: International Journal of Stylistics, 32(4), 458-478. <https://doi.org/10.1177/09639470231202261>
13. Xurramova Dildora Fozil qizi, & Ochilova Noila Farmonovna. (2023). O‘zbek va ingliz tili folklorida yetakchi qahramonlarning qiyosiy o‘rganilishi. Pedagog Journal, 34(1), 145–151. <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/4551>
14. Yalolova F.N. (2022). Comparative analyses of texts of Uzbek and English fairy tales. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. <https://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/539>
15. Zarifov, H. Folklor va arxeologiya materiallarini o‘rganishga doir. 1958.